



YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.

Muallif: **Shokirova Mushtariy**

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish, ilm- fan sifatini oshirish va yuqori darajali kadrlarni tayyorlash ko'zda tutilgan. Tadqiqotda ta'lim sohasiga yuqorli sifatli texnologiyalarni qo'llash, yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish va kadrlarni malaka oshirish orqali ularning tajribalarini oshirish tahlil qilingan. Shu jumladan strategiyada belgilangan maqsadlar O'zbekistonning intellektual darajasini oshirish va jahon minbarlarida o'z o'rnini toppish nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ta'lim, innovatsion texnologiyalar, yoshlar salohiyati, ta'lim islohotlari, strategik yo'nalishlar, pedagogik kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения качества образования в Новом Узбекистане, улучшения уровня науки и подготовки высококвалифицированных кадров. В исследовании анализируется внедрение современных и качественных образовательных технологий, развитие научного потенциала молодёжи, а также повышение квалификации кадров с целью расширения их профессионального опыта. Кроме того, рассматриваются цели, определённые в стратегии, с точки зрения повышения интеллектуального уровня Узбекистана и укрепления его позиции на мировой арене.



Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегия развития, образование, инновационные технологии, потенциал молодёжи, образовательные реформы, стратегические направления, педагогическая компетентность.

Annotation: This article examines the key directions aimed at improving the quality of education in New Uzbekistan, enhancing scientific development, and preparing highly qualified specialists. The study analyzes the implementation of modern and high-quality educational technologies, the development of youth's scientific potential, and the improvement of staff qualifications to strengthen their professional experience. The goals outlined in the national strategy are also reviewed in terms of increasing Uzbekistan's intellectual capacity and strengthening its position on the global stage.

Keywords: New Uzbekistan, development strategy, education, innovative technologies, youth potential, educational reforms, strategic directions, pedagogical competence.

Kirish. O'zbekiston mustaqilligining ilk kunlaridan yoshlar, ularning ta'lim sifatini rivojlantirish, ta'limni zamonaviy talablarga moslash, xalqaro standartlarga to'g'ri keltirish asosiy amillardan biriga aylangan edi. Shuningdek, taraqqiyot strategiyasida ham xalq ongini rivojlantirish, ularni ma'naviy va ma'rifiy yetuk qilishga turtki bo'lish strategiyamizning asosiy vazifasi etib belgilandi. Bugungi globallashtirilgan 21-asrda mamlakatimizning boshqa mamlakat bilan raqobatbardoshligi davlat aholisining ilmiy salohiyati, makoli kadrlar zaxirasi ularning esa qay darajada yuqori ekanligiga va ilmfanning rivoji, barqarorligiga bog'liq. Shu sababli har bir mamlakatning asosiy maqsadi ta'lim sifatini oshirish, innovatsion texnologiyalarni tarbig' etish, kelajak avlodning ilmiy-ijodiy faolligini kuchaytirish hamda o'qituvchilarning malakasini oshirish bugungi kunning asosiy masalasiga aylandi. So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar kompleks



va izchil xarakterga ega bo'lib, ularning bosh maqsadi ta'limning barcha bosqichlarida sifat va samaradorlikni oshirishdan iborat. Ushbu o'zgarishlar jarayonida eng asosiy e'tibor zamonaviy fikrlay oladigan, raqobatbardosh va yuqori malakaga ega mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Mazkur maqolada taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo'nalishlarning mazmuni, ularning ahamiyati hamda amaliyotga tatbiq etishning samarali yo'llari tahliliy yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili: So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimi va Yangi O'zbekistonning rivojlanish strategiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada kengayib bormoqda. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, ta'lim sifatini yaxshilash mamlakatning intellektual va iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega (Abdullayev, 2021; Mirzayev, 2022). Masalan, Q. Abdullayev va A. Mirzayevning tadqiqotlarida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, o'qituvchilarning professional mahoratini rivojlantirish va ilm-fanni integratsiya qilish zarurligi alohida qayd etilgan. Xalqaro ekspertlar tadqiqotlarida zamonaviy ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan metodlarning samaradorligi va ta'lim sifatini oshirish yo'llari muhim ilmiy xulosalar sifatida taqdim etilgan (UNESCO, 2020; OECD, 2019). UNESCO va OECD hisobotlarida ta'lim sifatini baholash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqlik masalalari batafsil yoritilgan. O'zbekistonlik olimlar esa ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish va oliy ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan (Islomov, 2021; Qodirov, 2022). Ularning fikricha, ta'lim sifati nafaqat moddiy-texnik bazaga, balki pedagoglarning kasbiy malakasi, innovatsion yondashuvlari va ilmiy tadqiqotlarning samaradorligiga ham bog'liq. Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimini



modernizatsiya qilish nafaqat strategik vazifa, balki mamlakatning umumiy taraqqiyotida muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Hozirgi vaqtda ta'limga berilgan o'zgarishlar o'z kuchini ko'rsatmoqda ya'ni ma'nan yetuk shaxslar davlatning har jabhasini rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shmoqda. Misol tariqasida bir vaqtning o'zida uch yoki to'rt tilda bimalol so'zlasha oladigan yoshlar xalqaro munosabatlarda ishtirok etishmoqda. Bu esa davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta foyda keltirmoqda. Shuningdek ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun 2020-yilda "Ta'lim tog'risidagi qonun" ham ishlab chiqildi. Bunga ko'ra ta'lim sohasidagi barcha shaxslar ya'ni o'qituvchi, talaba va ota-onalarning huquq va majburiyatlari aks etgan bo'lib, ularning ijtimoiy himoyasi, pedagoglarning maqomi va faoliyati qonunda kafolatlangan. Shuningdek davlat fondidan kadrlarni malakasini oshirish uchun har yili milliardlab mablag' ajratilmoqda, chunki barchaga ma'lumki malakasi oshgan kadr davlatning har tomonlama rivojlanishiga o'z hissasini qo'sha oladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bejizga bizning kelajagimiz yoshlar qo'lida deb bekorga aytmaganlar, shu sababli e'tiborning katta qismini yoshlarning ta'limiga ularning ilm-salohiyatiga qaratmoqdalar. Bunga ko'ra islohotlardan biri ya'ni yoshlarni ta'limga qiziqtirishga yo'naltirilgan islohotlardan biri talabalarning kontraktlarini to'lab berishdir. Masalan magistratura sohasiga xotin-qizlarning to'lov kontraktlari to'lab berilgan bo'lsa, bakalavr yo'nalishida kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini 1-yildagi to'lovi davlat budjetidan qoplab berilmoqda. Bularning barchasi ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan e'tibor demakdir.

Tahlil va natijalar.



Adabiyotlar va amaliy natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekistonda allaqachon ta'lim sifatini oshirish va kadrlarni malakasini oshirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilgan. Strategiya doirasida nazarda tutilgan ustuvor vazifalarning amalda bajarilishi, jumladan yangi maktablar qurilishi qolganlarini esa rekonstruksiya qilinishi, darsliklar zamon talablariga mos ravishda yangilanishi, pedagoglarning malakasi oshirilishi va ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi ta'lim tizimining sifat ko'rsatkichini yaxshilamoqda. Aholi va yoshlarning ta'limga qiziqishi va talabining ortishi, yoshlarning xalqaro reytinglarda ishtirok etish imkoniyatlarining kengayishi ham islohotlarning ijobiy samarasi sifatida baholandi.

Xulosa va takliflar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ta'lim tizimini tubdan yangilashga qaratilgan bo'lib, asosiy e'tibor sifat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy kompetensiyalarga qaratilmoqda. Mahalliy va xalqaro adabiyotlar tahlili ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, pedagoglarning malakasini oshirish va raqamli imkoniyatlardan samarali foydalanish tizimning rivojlanishida muhim omil bo'layotganini tasdiqlaydi. Amaliy natijalar esa ta'lim infratuzilmasining yaxshilanishi, ta'lim dasturlarining zamon talablariga moslashuvi va o'quvchilarning raqobatbardoshligini oshirayotganini ko'rsatmoqda.

Takliflar:

1. Zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kuchaytirish.
2. O'qituvchilar malakasini xalqaro tajribalar asosida muntazam takomillashtirish.



3. Ta'lim bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirish.

4. Ta'lim sifatini baholashning mustaqil va shaffof tizimlarini rivojlantirish.

5. O'quv reja va dasturlarni mehnat bozori talablariga moslab muntazam yangilash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, Q. (2021). O'zbekiston ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Mirzayev, A. (2022). Ta'lim sifati va pedagogik kompetensiyani rivojlantirish masalalari. Toshkent: Ilm-Ziyo.
3. Islomov, B. (2021). Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammo va yechimlar. O'zbekiston pedagogika jurnali, 4(2), 45–52.
4. Qodirov, N. (2022). Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalar qo'llanilishi. Ta'lim innovatsiyalari jurnali, 3(1), 27–33.
5. UNESCO. (2020). Education for Sustainable Development Report. Paris: UNESCO Publishing.

